

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаалиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиidinovich
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети


Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Ganjina Azimova NOYOB KITOBLAR FONDI O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA.....	5
2. Елена Гордеева СТРОИТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ РАННИХ ЗЕМЛЕДЕЛЬЦЕВ ДРЕВНЕГО ШАША.....	11
3. Mohinur Isaqova YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT QURISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI.....	16
4. Ilyos Oqbo‘tayev KOREYS XALQINING TO‘LJANJI MAROSIMI VA UNING TRANSFORMATSIYASI.....	22
5. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ САНОАТ ШАҲАРЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ.....	29
6. Xumora Pozilova TIRNAB BEZAK BERILGAN SOPOL IDISHLARLARNING TARIXIY ILDIZLARI, XRONOLOGIYASI, TARQALISH GEOGRAFIYASI VA O‘RGANILISHI.....	39
7. Murod Raxmatov “YANGI TURKISTON” JURNALI – MA’RIFAT VA KURASH MINBARI.....	46
8. Boburjon Teshaboyev FUQARO MUHOFAZASI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	51
9. Baxtiyor Xalmuratov “YOMG‘IR” RAMZI BILAN BOG‘LIQ XALQ QARASHLARI.....	58
10. Хулкар Холикулова ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА “ЛИДЕР АЁЛ” ВА “ЗАМОНАВИЙ АЁЛ” ТУШУНЧАЛАРИ.....	66
11. Шахноза Холикулова ЎЗБЕКИСТОНДА 1930-1940 ЙИЛЛАРДА КИМЁВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ САНОАТЛАШУВИ ТАРИХИ.....	71
12. Рашид Холмуродов ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ.....	77



Ganjina Faxriddinova Azimova,
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi
1- kurs tayanch doktoranti

NOYOB KITOBLAR FONDI O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA

For citation: G. Azimova. THE RARE BOOKS COLLECTION AT THE STATE MUSEUM OF HISTORY OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 8.

doi <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17252865>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston tarixi davlat muzeyining noyob kitoblar fondi shakllanishi, boyitilishi, saqlanishi va targ'ib etilishining tarixiy bosqichlari tahlil qilinadi. Arxiv hujjatlari, muzey ichki kataloglari va ilmiy manbalar asosida fond tarkibining lingvistik va tematik xilmaxilligi, restavratsiya hamda raqamlashtirish jarayonlari yoritiladi. Tadqiqot davomida olingan natijalar O'zbekistonning yozma merosini saqlash va targ'ib etishda muhim metodik tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: noyob kitoblar, muzey fondi, arxiv hujjatlari, saqlash, restavratsiya, raqamlashtirish.

Ганжина Фахриддиновна Азимова,
Государственный музей истории Узбекистана
Базовый докторант 1 курса

ФОНД РЕДКИХ КНИГ В ГОСУДАРСТВЕННОМ МУЗЕЕ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются исторические этапы формирования, пополнения, сохранения и популяризации фонда редких книг Государственного музея истории Узбекистана. На основе архивных документов, внутренних каталогов музея и научных источников освещены лингвистическое и тематическое разнообразие фонда, а также процессы реставрации и оцифровки.

Полученные в ходе исследования результаты представляют собой важные методические рекомендации по сохранению и популяризации письменного наследия Узбекистана.

Ключевые слова: редкие книги, музейный фонд, архивные документы, сохранение, реставрация, оцифровка.

Azimova Ganjina Fakhriddinova
PhD Student (1st year),
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
State Museum of History of Uzbekistan

THE RARE BOOKS COLLECTION AT THE STATE MUSEUM OF HISTORY OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article examines the historical stages of formation, enrichment, preservation, and promotion of the rare books collection at the State Museum of History of Uzbekistan. Based on archival documents, the museum's internal catalogs, and scholarly sources, it highlights the linguistic and thematic diversity of the collection, as well as the processes of restoration and digitization. The findings of the study provide important methodological recommendations for the preservation and promotion of Uzbekistan's written heritage.

Index Terms: rare books, museum collection, archival documents, preservation, restoration, digitization.

Kirish. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi mamlakatdagi eng yirik tarixiy-ma'rifiy maskanlardan biri bo'lib, unda moddiy madaniyat yodgorliklari, yozma manbalar, noyob kitoblar va qo'lyozmalar alohida fondlarda saqlanadi. Muzeyning noyob kitoblar fondi mamlakatimiz yozma madaniy merosini asrab-avaylash, ilmiy tadqiq etish va targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi.

Mazkur fondning shakllanish tarixi XIX asr oxiridan boshlab muzey-kutubxona faoliyatining uzviy qismi sifatida kechgan. XX asrning 20–30-yillarida madaniy boyliklarni milliyalashtirish, madrasalar va xususiy kutubxonalardan asarlarni yig'ish ishlari natijasida fond tarkibi sezilarli darajada boyidi. Bu davrda lingvistik va mavzu jihatidan turfa xildagi diniy, ilmiy, badiiy, tarixiy va tibbiy mazmundagi qo'lyozma hamda bosma asarlar to'plandi.

Sovet davrida fondning saqlanishi va tadqiqi ko'proq ideologik talqinlar bilan cheklangan bo'lsa-da, asarlarning tarixiy va san'atshunoslik qiymati ham e'tibordan chetda qolmadi. Mustaqillik yillarida esa fond faoliyatida yangi bosqich boshlandi — asarlarni restavratsiya qilish, ilmiy tavsiflash, elektron kataloglar yaratish va raqamlashtirish ishlari tizimli yo'lga qo'yildi.

Ushbu maqolada O'zbekiston tarixi davlat muzeyining noyob kitoblar fondi shakllanishining tarixiy bosqichlari, boyitish manbalari, saqlash va restavratsiya usullari hamda raqamlashtirish jarayonlari arxiv hujjatlari, muzey ichki kataloglari va ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yozma merosni asrash va targ'ib qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston tarixi davlat muzeyida noyob kitoblar fondi bo'yicha izlanishlar bir necha davrda olib borilgan bo'lib, mavjud ilmiy manbalar mazkur sohaning tarixiy va amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Sovet davrida chop etilgan adabiyotlar orasida, jumladan, “Музеи в атеистической пропаганде” (1988) asarida diniy mazmundagi kitoblarning muzey ekspozitsiyalarida ideologik talqinlari va ularning propagandaviy maqsadlarda qo'llanishi masalalari yoritilgan [3]. Bu yondashuv sovet muzeyshunosligi davrida yozma manbalarga bo'lgan rasmiy munosabatni ko'rsatadi.

N.A. Ziganshinaning “Искусство книги в Узбекистане” (1978) asarida esa O'zbekistonda kitob san'ati tarixi, qo'lyozma va bosma kitoblarning badiiy bezagi, ularni saqlash va restavratsiya qilish usullari bo'yicha muhim ilmiy ma'lumotlar keltirilgan [4]. Ushbu tadqiqot nafaqat badiiy-estetik tahlil, balki muzey sharoitida saqlashning metodik asoslarini ham belgilab bergan.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar kataloglari va H.S. Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar instituti kataloglari fond tarkibidagi asarlarning bibliografik tavsifini berishda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Bu kataloglar asarlarning muallifi, yaratilgan yili, xattotlik uslubi va jildlash texnikasi kabi tavsiflarni o'z ichiga oladi.

Mustaqillik davrida olib borilgan izlanishlar mazmunga zamonaviy ilmiy yondashuvlarni olib kirdi. Bu davrda muzey ichki kataloglari, raqamlashtirish loyihalari va tematik maqolalar asosida fondning tarkibi, lingvistik va tematik xilma-xilligi chuqur o'rganildi.

Metodologik jihatdan, N.S. Sodiqovanning “Музейное дело в Узбекистане” asari alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda muzey fondlarini shakllantirish, ularni ilmiy tavsiflash, saqlash va

ekspozitsiya jarayonida foydalanish bo'yicha tizimli yondashuv ishlab chiqilgan [2]. Mazkur asar O'zbekiston tarixi davlat muzeyi noyob kitoblar fondi faoliyatida amaliy qo'llaniladigan ilmiy va metodik asos sifatida ham muhimdir.

Natijalar. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi 1876 yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda uning fondida 350 mingdan ortiq eksponatlar saqlanadi, shundan 5000 dan ziyodi nodir va tarixiy kitoblardir [1;7]. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan nodir kitoblar to'plami o'z taraqqiyotida bir necha tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. 1883-yilda Toshkent muzeyi Toshkent jamoat kutubxonasi bilan birlashtirilib, kutubxona tarkibida faoliyat yurita boshladi. Bu davrdan boshlab qo'lyozma va bosma kitoblarni yig'ish ishlari, asosan, kutubxona ehtiyojlari va ilmiy izlanishlar doirasida olib borildi. Shu yili E.F. Kalem tomonidan tuzilgan "Fors, arab va turkiy qo'lyozmalar" tavsifnoma-katalogi fond tarkibidagi asarlarni ilk bor ilmiy muomalaga kiritdi [2;30]. 1898-yilda Andijon qo'zg'olonidan so'ng davlat rekvizitsiyasi yo'li bilan boyitish amaliyoti kengaydi. Xususan, eshon Muhammad Ali Sabirovning 194 tomdan iborat kutubxonasi fondga qo'shildi [2;31]. XX asr boshlariga kelib mablag' yetishmovchiligi va faqat noyob asarlarga e'tibor qaratish siyosati sababli fond hajmi cheklangan bo'lsa-da, ilmiy qiymati yuqori bo'lgan to'plam saqlanib qoldi.

Sovet hokimiyati o'rnatilgach, 1920–1930-yillarda madaniy boyliklarni milliyalashtirish jarayoni boshlangan. Natijada madrasalar, masjidlar va xususiy kutubxonalardan ko'plab diniy va dunyoviy mazmundagi qo'lyozma hamda bosma kitoblar muzey fondiga o'tkazildi. Bu davrda fondni ilmiy tavsiflash, kataloglashtirish ishlari tizimli yo'lga qo'yildi. Ushbu davrda muzey kutubxona tarkibidan chiqib, mustaqil faoliyat yurita boshladi.

Shunday qilib, 1883-yildan boshlab davom etgan kutubxona-muzey birligi tizimi nodir kitoblar fondining shakllanishida uch asosiy tamoyilni belgiladi: davlat rekvizitsiyasi, ilmiy tavsiflash va milliyalashtirish. Bu tarixiy jarayonlar bugungi kunda fondning ilmiy va madaniy qimmatini belgilab bermoqda. Muzeyning noyob kitoblar fondi XX asrning birinchi yarmida shakllana boshlagan bo'lib, uning dastlabki asosiy qismi 1920–1930-yillarda turli manbalardan yig'ilgan asarlardan tashkil topgan. Bu davrda O'zSSR Xalq maorif komissarligi va mahalliy muzeylar tomonidan to'plangan ko'plab qo'lyozmalar va bosma kitoblar markazlashtirilgan holda O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga topshirilgan[5]. Muzey fondida to'langan kitoblar va qo'lyozmalar o'zining tarixiy va badiiy ahamiyati bilan ajralib turgan. Dastlab bu kitob va qo'lyozmalar muzey kutubxonasi nodir kitoblar fondida saqlangan.

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, 1937-yilda muzey fondiga jami 124 ta noyob kitob kelib tushgan. Ulardan 36 tasi arab yozuvida, 22 tasi fors tilida, qolganlari turkiy tillardagi asarlardan iborat bo'lgan[8]. Ushbu asarlar tematik jihatdan islomshunoslik, tarix, falsafa, adabiyot, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqa ilmiy yo'nalishlarga oid bo'lib, muzey fondining ilmiy salohiyatini sezilarli darajada boyitgan.

1930–1950-yillarda fondning kengayishi asosan davlat miqyosida o'tkazilgan madaniy merosni yig'ish kompaniyalari bilan bog'liq bo'lib, unda sobiq xususiy kutubxonalar, masjid va madrasalardagi qo'lyozma kitoblar, shuningdek, viloyat va tumanlardagi muzeylardan olingan kitoblar asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek muzey fondiga tushgan ba'zi kitob, qo'lyozmalar va toshbosmalar shaxsiy kolleksiyalardan kelib tushgan bo'lib, ularning muayyan qismi sovg'a sifatida topshirilgan[7,8,9,10]. Bunday xayriya ko'rinishidagi hadyalar muzey fondini boyitishga ahamiyatli o'rin tutgan.

Sovet davrida diniy mazmundagi asarlar asosan ideologik tahlil uchun saqlangan bo'lsa-da, ularning tarixiy va san'atshunoslik jihatlariga ham e'tibor qaratilgan. Mustaqillik yillarida fondni boyitish yangi bosqichga ko'tarildi. Endi asarlar nafaqat saqlash, balki ilmiy tadqiqot va ommalashtirish maqsadida yig'ila boshlandi. Ushbu davrda ko'plab shaxsiy kolleksiyalar muzeyga topshirilgan, ayrim kitoblar esa xorijdan keltirilgan.

2019-yilda muzey rahbari J.H. Ismoilovanning tashabbusilari bilan noyob kitoblar fondi muzey kutubxonasi tarkibidan ajratilib, alohida mustaqil fond sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu tashabbus fondni ilmiy jihatdan yanada samarali boshqarish, saqlash va restavratsiya ishlarini zamonaviy talablar asosida yo'lga qo'yish, shuningdek, raqamlashtirish va kataloglashtirish

jarayonlarini jadallashtirishga keng imkoniyat yaratdi. Natijada fondning ilmiy-tadqiqot salohiyati ortib, uni muzeyning asosiy ilmiy-arxiv bo'limlaridan biriga aylantirish jarayoni boshlangan.

Muzeyning Noyob kitoblar asosiy fondi turli davrlarda yaratilgan qo'lyozma va bosma asarlarni o'z ichiga oladi. Fond tarkibidagi kitoblar orasida diniy, ilmiy va badiiy mazmundagi arab yozuvidagi nashrlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular mintaqaning ma'naviy hayoti, ilmiy tafakkuri va adabiy an'analari haqida muhim ma'lumot beradi.

Fond tarkibidagi asarlarning asosiy qismi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida litografiya usulida chop etilgan bosma kitoblardan iborat. Shuningdek, ko'plab qo'lyozma nusxalar XVIII asrga, hatto ayrim nodir asarlar XVII asrga ham taalluqlidir. Bu holat fond tarkibida uch asrga yaqin davrni qamrab oluvchi, diniy, ilmiy va badiiy tafakkurni aks ettiruvchi, tarixiy ahamiyatga ega manbalar mavjudligidan dalolat beradi[11]. Ushbu asarlar orqali o'sha davrning diniy-ma'rifiy muhitini, ilmiy-uslubiy qarashlarini va kitobat san'ati an'alarini o'rganish mumkin.

Fondga o'ndan oshiq “Qur’oni Karim” kitoblari jamlangan. XVII–XIX asrlar oralig'ida yaratilgan qo'lyozma Qur'onlar o'zining xattotlik uslubi, bezak naqshlari va sahifa tuzilishi bilan alohida ajralib turadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida litografiya usulida chop etilgan Qur'onlar esa o'sha davr bosma san'ati yutuqlarini namoyon etadi. Ba'zi nusxalarda vakf tamg'alari uchrab, ularning ilgari masjid yoki madrasa kutubxonalarida saqlanganini ko'rsatadi. Shuningdek, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hayoti va odoblariga bag'ishlangan “Shamail an-Nabiy”, fihiy risolalar, tasavvufiy yo'nalishdagi asarlar va diniy pand-nasihat kitoblari ham fond tarkibida mavjud [11].

Fondga ilmiy yo'nalishdagi asarlar ham saqlanadi. Jumladan, arab tilining grammatikasiga oid risolalar o'z davrida madrasalarda tilshunoslik asoslarini o'qitishda qo'llanilgan. Bunday risolalar nafaqat til o'rganish vositasi, balki o'sha davr ilmiy-uslubiy an'analari va ta'lim metodlarini aks ettiradi. Bundan tashqari, mantiq, falakiyot va tarixiy geografiyaga oid ayrim qo'lyozmalar ham uchraydi.

Noyob kitoblar fondida o'zbek mumtoz adabiyotining eng yirik namunalaridan biri — Alisher Navoiyning “Xamsa” asarining litografik nusxasi ham saqlanadi [11]. Bu asar nafaqat adabiy, balki san'atshunoslik jihatidan ham bebaho manba hisoblanadi. Uning matni, xattotlik uslubi, bezak naqshlari va sahifa tuzilishi o'z davrining kitobat san'ati darajasini yaqqol ko'rsatadi.

Yozma manbalarni saqlash va o'rganish bo'yicha O'zbekiston tarixi davlat muzeyining Noyob kitoblar asosiy fondi mamlakatimizdagi eng muhim ilmiy-arxiv bazalaridan biridir. Shu bilan birga, O'zbekistonda boshqa muzeylar ham yozma merosni saqlash va targ'ib etishda muhim tajribaga ega.

Masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibidagi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi 1939-yilda tashkil etilgan bo'lib, o'zbek xalqining yozma madaniyati va adabiy merosini to'plash, ilmiy tadqiq etish va keng jamoatchilikka yetkazish vazifalarini bajaradi. Uning fondida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis va Ogahiy kabi mumtoz adiblar qo'lyozmalari, shuningdek, XX asr o'zbek adabiyoti vakillari ijodiga oid hujjatlar mavjud [5;289].

Adabiyot muzeyi fondlarini ilmiy asosda tasniflash, kataloglashtirish, restavratsiya qilish va ekspozitsiya faoliyatida foydalanish bo'yicha olib borayotgan ishlari, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fond faoliyati uchun ham muhim metodik asos bo'la oladi. Ikkala muassasaning umumiy maqsadi — yozma manbalarni uzoq muddatli saqlash, ilmiy o'rganish va jamoatchilikka yetkazishdan iboratdir.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi noyob kitoblar fondining saqlanishiga alohida e'tibor qaratadi. Fond tarkibidagi qo'lyozma va bosma kitoblar muzeyning maxsus iqlim nazorati o'rnatilgan xonalarida saqlanadi.

Restavratsiya ishlari sovet davridayoq yo'lga qo'yilgan bo'lib, bugungi kunda ham davom etmoqda. Mustaqillik davrida fondning restavratsiya bo'limi zamonaviy texnika bilan jihozlanib, UNESCOning “Central Asian Manuscript Preservation” loyihasi doirasida ayrim qo'lyozmalar yuqori sifatli restavratsiyadan o'tkazildi[6].

Raqamlashtirish ishlari so'nggi yillarda fond faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Hozirda GOST talablari asosida elektron katalog yaratish ishlari bosqichma-bosqich amalga

oshirilmogda. Shu bilan birga, fond tarkibidagi asarlar bo'yicha kartografiya ishlari olib borilib, ularning kelib chiqishi, yaratilgan davri va tematik toifalar bo'yicha tizimlashtirish jarayoni yo'lga qo'yilgan. Mazkur ishlar yakunida noyob kitoblar fondining to'liq, aniq va ilmiy asoslangan katalogini shakllantirish rejalashtirilgan bo'lib, bu kelgusida fond materiallarini ilmiy tadqiqotlar, ekspozitsiyalar va virtual ko'rgazmalar uchun yanada qulay foydalanishga imkon yaratadi.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyida noyob kitoblar fondi asarlari turli davrlarda muzey ekspozitsiyalarida namoyish etilgan. Ushbu namoyishlar orqali tomoshabinlar yozma merosning tarixiy, badiiy va ilmiy ahamiyatini bevosita ko'rish imkoniga ega bo'lgan. Fond tarkibidagi ayrim noyob asarlar esa alohida mavzuga bag'ishlangan ko'rgazmalarda taqdim etilib, keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan. Bunday ko'rgazmalar yozma manbalarni nafaqat saqlash, balki ularni targ'ib qilishning samarali shakli sifatida xizmat qilgan. Hozirgi kunda muzey rahbariyati ushbu fondni yanada kengroq targ'ib etish, ilmiy va madaniy merosni ommalashtirish maqsadida ko'proq ekspozitsiyalar va tematik ko'rgazmalar tashkil etishni rejalashtirmogda.

Muhokama. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi noyob kitoblar fondining shakllanish jarayoni mamlakatimizdagi umumiy muzeysunoslik rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Arxiv hujjatlari va kataloglar tahlili shuni ko'rsatadiki, fond tarkibining asosiy qismini XX asrning birinchi yarmida to'plangan qo'lyozma va bosma asarlar tashkil etadi. Bu holat, bir tomondan, sovet davridagi madaniy boyliklarni milliyalashtirish siyosatining bevosita natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha davr ilmiy muhitining ehtiyojlariga javob bergan.

Sovet davrida fondning diniy mazmundagi asarlar bilan boyitilishi, ularning ideologik talqinlar ostida saqlanishi ilmiy-tarixiy jarayonlarning murakkabligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, ularning badiiy bezagi, xattotlik uslubi va tarixiy ahamiyati saqlanib qolgan. Mustaqillik yillarida esa bu yondashuv tubdan o'zgardi. Asarlar milliy madaniy merosning ajralmas qismi sifatida baholandi va ularni restavratsiya qilish, kataloglashtirish hamda raqamlashtirish ishlari tizimli amalga oshirildi.

Mazkur fondni o'rganish jarayonida aniqlangan lingvistik xilma-xillik (arab, fors, turkiy tillardagi asarlar) va tematik qamrov (diniy, ilmiy, badiiy, tarixiy) uning nafaqat muzey ekspozitsiyalaridagi ahamiyatini, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham salohiyatini tasdiqlaydi. Xususan, Qur'oni karimning XVII–XIX asrlarga oid qo'lyozma nusxalari, Alisher Navoiyning litografik "Xamsa"si va arab tilidagi grammatik risolalar fondning eng qimmatli manbalari qatoriga kiradi.

Shunday qilib, fond tarixini o'rganish, uning saqlanishi va zamonaviy raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilish yozma merosni asrash bo'yicha kompleks yondashuv ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa nafaqat muzeysunoslar, balki madaniy merosni tadqiq etuvchi barcha mutaxassislar uchun ham metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tarixi davlat muzeyining noyob kitoblar fondi mamlakatimiz yozma madaniy merosini asrash, o'rganish va targ'ib etishda beqiyos ilmiy hamda madaniy ahamiyatga ega. Fond tarkibidagi arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan diniy, ilmiy, badiiy va tarixiy mazmundagi asarlar uning tematik hamda lingvistik xilma-xilligini namoyon etadi va ko'p qirrali ilmiy tadqiqotlar uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda olib borilgan restavratsiya, kataloglashtirish va raqamlashtirish ishlari fondning uzoq muddatli saqlanishini ta'minlab, ularni keng jamoatchilikka yetkazishda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishiga imkon yaratmogda.

Bugungi kunda fond tarkibidagi kitoblar soni izchil oshib bormogda. Bu jarayon muzeyning ilmiy-tadqiqot faoliyatida, shuningdek, milliy yozma merosimizning boyishida muhim o'rin tutmogda va uning kelgusidagi ilmiy hamda madaniy salohiyatini yanada yuksaltirmogda.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. Султонов Ў.А. Ўзбекистон тарихий давлат музейи фонддаги тарихий ҳужжатлар (тадқиқ ва тавсиф). – Тошкент, 2024. – 178 б.

2. Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. – Тошкент: Фан УзССР, 1975. – 289 с.
3. Музеи в атеистической пропаганде. – Ленинград, 1988. – 151 с.
4. Зиганшина Н.А. Искусство книги в Узбекистане. – Ташкент, 1978. – 111 с.
5. Левтеева Л.Г. Сохраняя культурное наследие или мечты, ставшие реальностью. – Ташкент, 2019. – 343 с.
6. UNESCO. Central Asian Manuscript Preservation Project: Final Report, 2005–2010. – Paris: UNESCO Publishing, 2011.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi, 94-fond, 5-ro‘yxat, 3014-yig‘ma jild, 2–4-varaq.
8. O‘zbekiston Milliy arxivi, 94-fond, 5-ro‘yxat, 3014-yig‘ma jild, 3–6-varaq.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi, 396-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 40-varaq.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi, 412-fond, 1-ro‘yxat, 37-ish, 43-varaq.
11. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Noyob kitoblar fondi, 1–4 Inv. kitoblari.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000